

O'SPIRINLARDA EMOTSIONAL HOLATLARNING SHAKLLANISHINI EKSPERIMENTAL O'RGANISH

Muxamedova Madina Turdiboy qizi

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universiteti 2-bosqich magistratura ijtimoiy
fanlar fakulteti, psixologiya ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur tesizda o'spirinlarda emotsional holatlarning shakllanish jarayonini eksperimental jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda o'spirin yosh davriga xos psixologik xususiyatlar, emotsional holatlarning rivojlanish omillari hamda ularning shaxs kamolotidagi o'rni tahlil qilinadi. Eksperimental tadqiqot jarayonida turli psixodiagnostik metodikalar yordamida o'spirinlarning emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi va ota-ona munosabatlari o'rganiladi. Olingan natijalar asosida emotsional holatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va individual omillar aniqlanadi hamda ularni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida o'spirinlar bilan ishlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'spirinlik davri, emotsional holat, emotsional rivojlanish, psixologik xususiyatlar, eksperimental tadqiqot, psixodiagnostika, emotsional barqarorlik, ijtimoiy omillar, individual xususiyatlar.

KIRISH

Hozirgi kunda o'spirinlar psixologiyasini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'spirinlik davrida emotsional holatlarning shakllanishi va rivojlanishi shaxs kamolotida muhim o'rin tutadi. Ushbu davrda yuzaga keladigan hissiy o'zgarishlar, ichki kechinmalar va tashqi ta'sirlarga bo'lgan reaksiyalar o'spirinning xulq-atvori, ijtimoiy moslashuvi hamda ruhiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy jamiyat sharoitida o'spirinlarning emotsional holatini chuqur o'rganish, ularning psixologik muammolarini aniqlash va oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, o'spirinlarda emotsional holatlarning shakllanish jarayonini eksperimental jihatdan tahlil qilish ushbu tadqiqotning asosiy yo'nalishini tashkil etadi.


Mazkur tadqiqotning maqsadi — o'spirinlarda emotsional holatlarning shakllanish xususiyatlarini eksperimental o'rganish va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot obyekti: umumta'lim maktabining 10-11 sinf o'quvchilaridan iborat.


Tadqiqot predmeti: ota-ona ma'lumot darajasining o'spirinlarning emotsional holatlariga ta'siri va xulq-atvor shakllanishida bola va ota-ona munosabatlari o'rnining nazariy asoslarini ilmiy-amalaviy jihatdan dalillash.

Emperik tahlilimizda Spielberger-Xaninning Tashvish shkalasini aniqlash test-so'rovnomasi, Bass-Darkining Tajavuz xolati tashxisi test-so'rovnomasi va A.Y.Varga va V.V.Stolinning Bolaning ota-onalarga bo'lgan munosabati test-so'rovnomasidan foydalanildi.

Tadqiqotimizda jami 100 nafar sinaluvchi qatnashdi va ulardan olingan metodikalarning 6 tasiga to'liq javob berilmaganligini hisobga olib yaroqsiz deb topildi va 94 ta olingan test-so'rovnomalar natijasi tahlil qilindi. Tadqiqotimizda -- nafar qiz bolalar 49 va nafar o'g'il 45 bolalar qatnashdi. Ular 16-17-18 yoshli maktab o'quvchilari hisoblanadi. Spielberger–Xanin “Tashvish holatini aniqlash” metodikasi jins xususiyatlari bo'yicha o'rgandik natijalariga ko'ra, o'spirinlarda shaxsiy va vaziyatli tashvish darajasi turlicha ekanligi aniqlandi. Jumladan: Spielberger–Xanin metodikasi bo'yicha:





Tadqiqot natijalari shuni





ko'rsatadiki, Spielberger–Xanin metodikasi natijalariga ko'ra, o'spirinlarning 28 foizida yuqori, 49 foizida o'rtacha va 23 foizida past darajadagi tashvish kuzatildi. Bu natijalar o'spirinlarning aksariyatida emotsional zo'riqish o'rtacha darajada ekanligini, biroq ma'lum qismida yuqori tashvish mavjudligini ko'rsatadi.

Bass–Darki “Tajavuz holatini aniqlash” metodikasi bo'yicha:



Ushbu metodikaga ko'ra, o'spirinlarning 25 foizida yuqori, 52 foizida o'rtacha va 23 foizida past darajadagi tajovuzkorlik aniqlangan. Bu esa o'spirinlarning ko'pchiligida tajovuzkorlik o'rtacha darajada ekanligini, ayrimlarida esa yuqori ko'rsatkichlar mavjudligini ko'rsatadi.

Varga–Stolin "Bolaning ota-onaga bo'lgan munosabatini aniqlash metodikasi bo'yicha:



Varga–Stolin metodikasi natijalariga ko'ra, o'spirinlarning 57 foizida ota-onaga nisbatan ijobiy, 26 foizida befarq yoki noaniq, 17 foizida esa salbiy munosabat kuzatildi. Bu natijalar oilaviy muhitning o'spirin emotsional holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalari o'spirinlarda emotsional holatlarning shakllanishi murakkab va ko'p omilli jarayon ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida o'spirinlarning ma'lum qismida tashvish va tajovuz darajasi yuqori ekanligi aniqlandi. Shuningdek, ularning emotsional holati ota-ona bilan bo'lgan munosabatlariga bevosita bog'liqligi kuzatildi.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, sog'lom psixologik muhit va ijobiy oilaviy munosabatlar o'spirinlarda emotsional barqarorlikni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Tavsiyalar:

O'spirinlar bilan ishlashda ularning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish va muntazam diagnostika o'tkazish tavsiya etiladi.

Ota-onalar bilan psixologik tushuntirish ishlari olib borilib, sog'lom oilaviy muhitni shakllantirishga e'tibor qaratish lozim.

Yuqori tashvish va tajovuz darajasiga ega o'spirinlar bilan individual korreksion mashg'ulotlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

Emotsional barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan trening va mashg'ulotlarni joriy etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Charles D. Spielberger. Anxiety: Current Trends in Theory and Research. — New York: Academic Press, 1972.
2. Yuri L. Khanin. O'z-o'zini baholash asosida tashvishni aniqlash metodikasi (Spilberger–Xanin). — Leningrad, 1976.
3. Arnold H. Buss., Mark Perry Darke. Aggression Questionnaire (Bass–Darki metodikasi). — 1957.
4. A. Ya. Varga., V. V. Stolin. Ota-ona va bola munosabatlarini o'rganish metodikasi. — Moskva, 1988.
5. Lev S. Vygotsky. Pedagogik psixologiya. — Moskva: Pedagogika, 1991.
6. Aleksei N. Leontiev. Faoliyat, ong va shaxs. — Moskva, 1975.
7. Robert S. Feldman. Development Across the Life Span. — New York: Pearson, 2011.
8. David R. Shaffer. Developmental Psychology: Childhood and Adolescence. — USA: Wadsworth, 2009.
9. E. G'. G'oziyev. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O'qituvchi, 2002.
10. B. R. Qodirov. Yosh davrlari psixologiyasi. — Toshkent, 2005.